

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883877>

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK –  
O'ZBEKISTONDA TINCHLIK VA OSOYISHTALIKNI  
TA'MINLASHNING MUHIM OMILI**

**Abdulxayeva Maftunabonu Ibrohimjon qizi**  
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

*Annotatsiya: Ushbu maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyasining mamlakatimiz rivoji va taraqqiyotidagi ahamiyati va bu borada qilingan ishlr haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: millat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, qadriyat, baynalmilal madaniyat, konfrensiya.*

*Аннотация: В этой статье мы расскажем о значении национальной традиции социальных и религиозных ценностей в истории и истории нашей страны и о действиях, предпринятых в связи с этим.*

*Ключевые слова: нация, национальность, национальная идентичность, религиозная принадлежность, гражданское общество, международная цивилизация, конференции.*

*Abstract: The article will discuss the significance of the national tradition of social and religious values in the history and story of our country and the actions taken in this regard.*

*Keywords: nation, nationality, national identity, religious affiliation, civil society, international civilization, conferences.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘z ichki va tashqi siyosatida baynalmilalchilik g‘oyalariga sodiq tarzda jahondagi barcha xalqlar va millatlar bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatish hamda rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi ilg‘or mamlakatlar bilan barcha sohada hamjihatlik, hamkorlik va birdamlikka intilmoqda, xalqaro munosabatlarning umum tan olgan qoida va tamoyillariga rioya qilmoqda. Mamlakatda barcha fuqarolarning, ular millati va irqidan qatiy nazar o‘zaro ishonchi hamda birdamligini mustahkamlash, milliy-madaniy ne’matlarini o‘zaro ayriboshlash yuzasidan izchil siyosat yuritilmoqda.

XX asrning oxirlarida ko‘p millatli O‘zbekistonda etnik uyg‘onish jarayoni juda yaqqol namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, mamlakat mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda milliy omilning ahamiyati o‘sib, asosiy millatlar (o‘zbeklar, qoraqalpoqlar)dagina emas, bu erda yashovchi boshqa barcha xalqlarning vakillarida ham o‘z tarixiga, an’naviy madaniyatiga qiziqish kuchaydi. Bu hol ob’ektiv ravishda millatlararo, dinlararo munosabat masalalariga e’tiborni kuchaytirishni, Respublika hayotida bag‘rikenglikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi yangi davlat strategiyasini ishlab chiqishni talab qildi.

Ko‘p millatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni shakllantirish bo‘lishi zarur. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy siyosatning o‘ziga xos yo‘li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat milliy bag‘rikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ko‘p millatli O‘zbekistonda yashab turgan barcha xalqlar tomonidan islohot jarayonlari keng miqyosda qo‘llab-quvvatlangan taqdirdagina fuqarolik jamiyatini barpo etish mumkin. Qadriyatları, dini va siyosiy maslakları turlicha bo‘lgan ijtimoiy guruhlarning ijobjiy hamkorligiga, ekstremizm ko‘rinishlarining bartaraf etilishiga avvalo, fe’l-atvordagi bag‘rikenglik me’yorlarini va madaniyatlararo hamjihatlik ko‘nikmalarini ishlab chiqish yo‘li bilangina erishish mumkin. Mojaroli vaziyatlarning oldini olish, butun aholini bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, mamlakatda olib borilayotgan milliy-madaniy siyosatning asosiy vazifalari bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi *Birinchi* Prezidenti I.A. Karimov etnik, madaniy, diniy sabr-

toqat mustaqillik sharoiti jamiyatimizni ma’naviy yuksaltirish manbayi ekanligini qayta-qayta ta’kidlagan edi<sup>1</sup>.

Suveren O’zbekiston o‘z tarixi, mamlakatning tabiatini va jug‘rofiy-siyosiy holati xususiyatlarini, demografik vaziyat, o‘zbek xalqining mentalitetini e’tiborga olib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish sohasida o‘z yo‘lini tanlab oldi.

Mustaqil rivojlanish yo‘lini tanlashda respublikaning ko‘p millatlilikiga katta ahamiyat beriladi chunki gap O‘zbekistonda yashovchi turli millatlarga mansub yuz minglab kishilarning taqdiri haqida, ularning o‘z mamlakati ravnaqi yo‘lidagi jipslashgan bunyodkorlik ishi haqida boradi. Respublikada yashovchi turli-tuman aholining ko‘philigi uchun O‘zbekiston qadrdon vatan bo‘lib qolgan.

O‘zbekiston taraqqiyotining taqdiri hal etilayotgan hozirgi tarixiy bosqichda xalqning millatlararo xamjihatligi, jipslik va bag‘rikenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning asosiy ustuvor vazifalari qilib belgilab olindi. Bu respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishining, yuksak rivojlangan va madaniy darajasi baland davlat sifatida jahon hamjamiyatiga kirib borishining ishonchli garovidir.

Mustaqillik yillarida Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo‘nalishi bu 1994-yili boshlangan birinchi Xalq ijodiyoti festivali bo‘ldi. Bu festival O‘zbekiston mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va u har ikki yilda bir marta o‘tkazishga qaror qilindi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan “Turkiston — umumiy uyimiz” mavzusidagi kechalar, uchrashuvlar xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va ahillikni kuchaytirishda katta rol o‘ynamoqda.

Bugun respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot – Imam Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda. Ularda talabalar diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni olish imkoniyatiga ham ega. 1999-yilda

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, birqarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari. — T; O‘zbekiston.1998. —B. 135- 136.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent islom universitetiga asos solindi.

Mamlakat Baynalmilal madaniyati Markazi 1995-yil 10-11- mart kunlari Toshkent shahar hokimiyati hamda Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda “Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o’tkazdi. Ushbu konferensiya tavsiyalari keyingi yillarda millatlararo totuvlikni rivojlantirishga doir ishlarni yanada takomillashtirishga, uni yangidan-yangi tajribalar va ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishga yordam berdi.

O‘zbekiston “Xalq birligi” harakati va “Baynalmilal madaniyat” markazi 1996-yil “O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida” nomli kitobni nashr etdi. Unda milliy va millatlararo munosabatlarning jamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida tutgan o‘rnini va roli, milliy madaniyatlar ravnaqi va mustaqillik imkoniyatlari haqida fikr yuritildi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992 -yil 7-martdagi farmoni bilan Islom dini omilidan, uning ma’naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom – tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba – yoshlar ta’lim olmoqdalar.

Islom ta’limoti va falsafasini keng o‘rganish, o‘zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida 1999 -yil 7- aprelda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi.

2007 yil Islom konferensiyasi tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi – ISESSO (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar (Senegal) shaharlari qatorida Islom madaniyatining 2007 -yildagi poytaxti deb e’lon qilindi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Shamsutdinov R.T., Mo’minov X. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining notarix yo‘nalishlari uchun o‘quv qo‘llanma) T.: “Sharq”, 2013.- B.546.

2007 yil 14 – 15 avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahrining 2007 yildagi Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishiga bag‘ishlangan «O‘zbekistonning Islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘sishgan hissasi» mavzusida xalqaro konferensiya o’tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tgan edi: "Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda an’anaviy uyg‘unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko‘p elatlilik omili davlatlarning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag‘batlantiruvchi ta’sir etishini ko‘rsatuvchi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqlar o‘rtasida ma’lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko‘p elatlilik omili ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lidagi to‘g‘anoqqa aylanib qolmagan aksincha, taraqqiyotning jadallahshuviga yordam bergen millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan. 1992 - yilning yanvarida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e’tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va butun dunyoda hamjihatlikka erishish, dinlararo totuvlik, tinchlikni saqlash yo‘lida muhim dasturulamal bo‘layotganini, bu jihatlar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham o‘z aksini topganini e’tirof etdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta’minalash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Buyuk ajdodlarimizning boy madaniyat va ma’rifat buloqlaridan bahramand bo‘lgan xalqimiz nafaqat millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, balki dinu-

diyonat, iymon-e'tiqod, odob-axloq, mehr-muruvvat, oila, farzand tarbiyasi, ota-onamurmati va izzati borasida ham o'ziga xos keng fe'llik, sahovat va mo'tadillik tamoyillariga amal qilib kelmoqda. Mamlakatimiz tarixan ko'p millatli o'lka bo'lganligi tufayli bu zaminda turli-tuman din vakillarining emin-erkin yashashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yurtimizdagি boshqa tashkilotlar qatori diniy jamoalar ham jamiyat taraqqiyotida tobora faol ishtirok etib, xalqimizning ma'naviyati va qadriyatini tiklash, o'zligimizni anglash, eng asosiysi, mustaqilligimizning mustahkam va boqiy bo'lishiga hissalarini qo'shmaqdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. Bizning yo'limiz- demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir.
2. Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.
3. A. Bekmurodov. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson.
4. Sh. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.
5. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.
6. Ismailova J.X. Bag'rikenglik va totuvlik – taraqqiyot garovi. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. / Xalqaro ilmiy-amaliy materiallari. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
7. Isoqboyev A. Umarhanov S. Bag'rikenglik – yuksak ma'naviy fazilat. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. / Xalqaro ilmiy-amaliy materiallari. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.